

INGLIZ TILIDAGI BA'ZI SINONIM SO'ZLARNING MA'NO JIHATIDAN
FARQLANISHI

Maxmudova Bibiroziya Iqboljon qizi
Andijon ichki ishlar akademik litsey ingliz tili o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: ushbu maqolada sinonim so'zlar, xususan, uning turlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek o'zaro sinonim bo'lgan so'zlar haqida, ularning ma'no jihatidan farqlanishi ko'rsatib o'tilgan. Maqoladan ma'nodosh so'zlarning gap tarkibida qo'llash va ulardan amalda foydalanish jarayonlari ifodalangan. Ingliz tilida shunday sinonim so'zlar borki, ular o'zbek tilidagi ma'nodosh so'zlardan farq qiladi. Ular gap tarkibida qo'llanilganda ma'lum darajada, ya'ni ma'no nozikligi nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Shuning uchun yangi o'rganuvchilar sinonimlardan foydalanish mobaynida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Maqola orqali biz o'rganuvchilarga yengillik yaratish maqsadida ma'no farqlash jarayonidagi ba'zi sinonim so'zlarni o'rganib chiqdik.

Kalit so'zlar: sinonim, sinonimiya, matn, ma'no, o'g'zaki nutq, yozma nutq, uslub, so'z.

РАЗНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ СИНОНИМОВ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ

Махмудова Бибирозия Икболжон кизи

Учительница английского языка Андижанского академического лицея МВД

АННОТАЦИЯ: в этой статье описываются синонимы, в частности их типы. Также было показано, что слова, которые являются синонимами, имеют разные значения. В статье описывается, как слова используются. В английском языке есть такие синонимы, что они отличаются от узбекских синонимов. Они могут существенно различаться по смыслу предложения. В этом процессе ученик сталкивается с трудностями при использовании синонимов. В этой статье мы изучили некоторые синонимы в значении слов, чтобы облегчить студентам.

Ключевые слова: синоним, синонимия, текст, значение, устная речь, письменная речь, предложение.

**ANALYSING SEMANTIC DIFFERENCES OF SYNONYMS IN (SPECIFIC)
DIACOURSE**

Maxmudova Bibiroziya Iqboljon qizi

English teacher of Andijan academic lyceums of the Ministry of Internal Affairs

ANNOTATION: This article is about synonyms, particularly their types. It has also been shown that words that are synonymous are distinct from each other. From the article how words are used in the sentence structure, in which cases the use processes are described. There are such synonyms in English that they are different from the Uzbek synonyms. We can distinguish them by meaning, in other words they are used in the context of the sentence. In this process, the learner will have difficulty using synonyms. Through the article, we have explored some synonyms in meaning differentiation to facilitate the learner.

Key words: synonym, synonymy, meaning, text, oral speech, written speech, style, word.

Dunyodagi barcha tillarning asosini soʻz tashkil etadi. Shuningdek insonlarning nutqi ham aynan shu soʻzlarning qoʻllanilishiga bogʻliq. Nutqimizning ravon boʻlishi va soʻzlagan soʻzlarimizning takrorlanmasligi uchun soʻz boyligimiz koʻp boʻlishi va sinonim soʻzlarni qoʻllashimizga bogʻliq desak mubolagʻa boʻlmaydi. Til birliklarining bir xil maʼnoga ega boʻlish hodisasasi sinonimiya deyiladi.

Sinonimiyaning birligi bir umumiy maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar yaʼni, sinonimlardir. Sinonim yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, “bir nomli” degan maʼnoni anglatadi. Sinonimlar qanday til birliklariga xosligiga qarab, lugʻaviy, frazeologik va sintaktik sinonimlarga boʻlinadi.

Sinonimlar oʻzbek tilida ham keng qoʻllaniladi. Oʻzaro sinonim boʻlgan soʻzlar guruhi sinonimlar qatori deyiladi. Sinonimlar qatoridagi bir soʻz bosh soʻz (asosiy soʻz) hisoblanadi. Bosh soʻz oʻzining maʼnodoshlariga nisbatan ommabop boʻladi va muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsional boʻyoq, uslubiyatga koʻra betarafligi va shu kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Sinonim soʻzlar maʼno jihatidan bir xil, ammo shakli jihatidan turlicha boʻlgan soʻzlar hisoblanadi. Misol qilib ingliz tilidagi face, visage, countenance soʻzlarini olsak, ularning barchasi yuz, yaʼni tana aʼzosining bir qismini ifodalash uchun qoʻllanadi. Sinonimlarning xuddi shunday bir xil maʼnoga ega boʻlish hodisasi esa sinonimiya jarayoni hisoblanadi. Sinonimiyada bir soʻz bosh soʻz, yaʼni asosiy-dominanta soʻz vazifasini bajaradi. Face, visage, countenance - oʻzaro sinonimlar ichidagi asosiy soʻz face hisoblanib, eng koʻp qoʻllaniladigan, umumiy soʻzdir. Leave, depart, quit, retire, clear out- joʻnab ketmoq maʼnosidagi ushbu leksemalardagi bosh soʻz leave soʻzi hisoblanadi.

Maʼnodosh soʻzlar belgi va xususiyatiga koʻra 2 turli boʻladi :

1. Ideografik sinonimlar ;
2. Stilistik sinonimlar.

Ideografik sinonimlar oʻzaro darajalanish xususiyatiga ega boʻlganligi bilan stilistik sinonimlardan farq qiladi. Ular bir-biriga juda yaqin boʻlsa xam, kontekstda turli xil maʼnolarni anglatadi. Masalan, beautiful – fine – handsome – pretty -goʻzal. Beautiful soʻzi sinonimiyadagi soʻzlar uchun eng toʻliq maʼnoga ega boʻlgan soʻzdir. Fine-handsome-pretty soʻzlari esa uning bir qismi hisoblanib, darajalanish jarayonida beautiful kuchli maʼnoga ega ekanligi bilan farq qiladi. Stilistik sinonimlar esa, matn ichida asosiy ahamiyatga ega ekanligi va emotsional bahoga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu maʼnodosh soʻzlar sheʼrlarda, qadimgi boshqa maʼnoda, hozirda boshqa maʼnoda qoʻllanilgan holatlarda, asarlarda oʻzaro sinonim boʻlib kelishi mumkin. Misol uchun, maid soʻzi girl, bliss soʻzi happiness soʻziga sinonim boʻlishi stilistik sinonimiya hisoblanadi[1].

Demak, sinonimlar uslubiy xususiyatiga, emotsional boʻyoqqa ega ekanligiga koʻra birbiridan farq qiladi. Nutqimizda sinonimlarning, har birining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Sinonimlarning maʼnosi bir xil boʻlishiga qaramay, ular maʼno farqlash jarayonida oʻzining aniq maʼnosini yaqqol saqlab qoladi.

Koʻpincha insonlar bir uyaga mansub soʻzlarni maʼnodosh deb hisoblashadi. Bu hodisa mutloq xatodir. Misol uchun, horse va animal leksemalari semantik jihatdan oʻxshash boʻlsa-da, ammo oʻzaro sinonimlar hisoblanmaydi[2].

Bundan tashqari, ingliz tilida shunday sinonim soʻzlar mavjudki, biz ularni yolgʻon yoki aldanchi sinonimlar deb atashimiz mumkin. Ushbu tur shakldosh soʻzlaning eng xatarli turi hisoblanib, oʻquvchiga sinonimlar qoʻllash jarayonida noaniqliklarga sabab boʻlib qoladi. Misol uchun, car va vehicle soʻzlari anglashilgan maʼno jihatidan va koʻrinishidan transport vositasi

hisoblansa-da, aslida car va vehicle so'zlari umuman boshqa ma'noli bo'lgan so'zlardir. Ularning umumiy ma'nosi qisman mos kelsa-da, ba'zan ular bir-birlarini almashtirib qo'llash mumkin. Yana misol qilib, famous va notorious – mashhur ma'nosidagi sinonim so'zlarni olishimiz mumkin. Chunki, ular hech qachon bir-birini almashtirib qo'llanilmaydi, ular ma'no jihatdan birbiriga mos kelmaydi va ularning mazmunida o'zaro eksklyuziv belgilar mavjuddir. Famous va notorious so'zlarini xamma umumiy nom ostida biladi. Ammo ular ma'no nozikligi nuqtayi nazaridan turlichadir:

Famous - mashhur, taniqli ma'nosida ;

Notorious - esa mashhur, taniqli, ammo yomon nom bilan.

Wages, salary, pay, fee so'zlari ham ushbu tur sinonimlarga kiradi. Bu yerda wages so'zi oddiygina ishchilarga beriladigan ish haqi ma'nosida, salary – xizmati uchun beriladigan oylikka, pay so'zi esa asosan harbiy xizmatchilarning maoshi ma'nosida, fee so'zi esa qalam haqqi uchun to'lanadigan to'lov miqdori ma'nosiga ega bo'lgan sinonimlar hisoblanadi. Ularni o'z holatida ishlatish nutqdagi g'alizliklarni oldini oladi.

Resign – retire, listen – hear, look – see, learn – study, shade – shadow treat – cure, remember – remind [3].

Ushbu sinonimlar ham shu turga mansub bo'lgan sinonimlardir. Masalan, resign va retire sinonimlari ham ma'no nozikligi nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi. Ya'ni resign – boshqa lavozimni egallash uchun lavozimidan ketish bo'lsa, retire esa nafaqat ushbu lavozimni tark etish, balki umuman ishlashni to'xtatish, nafaqaga chiqishdir.

Hear va listen so'zlarini tahlil qilganimizda, hear so'zi jismoniy harakat natijasida yuzaga keladigan tovushlarni eshitish va uni idrok etishda ishtirok etadigan biologik jarayondir.

Listen esa, bu tovushlarning ma'nosiga e'tibor berish va uni tushunish qobiliyati. Biz shovqinlarni eshitamiz, musiqani tinglaymiz. Chunki, shovqin quloqlarimizga xech qanday harakatsiz yetib boradi.

See va look sinonimlarini farqlaganimizda, see ko'zlarimiz yordamida kimnidir yoki nimanidir payqash yoki xabardor bo'lish uchun qarash ma'nosi anglashiladi. Look esa, bu ko'zlarimizni ma'lum yo'nalishga yo'naltirish, yana ham batafsil aytganda, ko'rish qobiliyatidir.

Learn va study so'zlari ham qiyoslaganimizda bir-biriga juda yaqin ma'noli so'zlar hisoblanadi. Ammo ular xam ma'no nozikligi jihatidan farqlanishi mumkin ekan. Ya'ni, learn o'rganish yoki bilish orqali bilimga yoki mahoratga ega bo'lish bo'lsa, study esa faktlarni yodlash, xuddi maktabga borib o'rganish demakdir.

Shadow va shade so'zlari: shadow xar qanday yorug'lik manbalari orqali, masalan, sham, chiroq, osmondagi yorug'lik yoki sun'iy yorug'likdan tushadigan soya ma'nosida qo'llanilsa, shade esa faqatgina quyosh nurida paydo bo'ladigan soyaga nisbatan ishlatiladi.

Treat va cure so'zlari ham o'zaro farqlanadi. Treat bemorning ahvolini va hayot sifatini yaxshilanishi- davolash bo'lsa, cure esa bemorni kasallikdan butunlay xalos qilib davolanishidir.

Remind va remember so'zlariga kelsak, remind fe'li oddiy qilib aytganda qo'zg'atuvchi fe'l ya'ni kimgadir esdan chiqayotganda eslatib o'tishdir. Remember esa, refleksdir. Ikkala fe'l xam bir xil ma'noni anglatrsa-da, ammo ular narsa bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi.

Persuade va convince sinonimlari o'zaro farqlanganda, persuade fe'li biron bir insonni biror bir narsaga mantiqiy ishontirishi ya'ni tortishuv paytlarida ishontirish ma'nosi

anglashiladi. Mohiyatan bu ikki soʻz oʻzaro solishtirilganda persuade insonning aqli bilan ishontiradi, convince

esa, natijaga ishontiradi.

Visit va attend soʻzlarini solishtirganimizda, ular orasidagi farq yaqqol namoyon boʻladi. Chunki, visit soʻzini biz joyga nisbatan tashrif buyurish maʼnosida, attend soʻzini voqealarga yoki tadbirlarga qatnashish maʼnosini tushunib yetamiz.

Note va notice feʼllarmiz xam mavjud. Note soʻzi odatda tinglash jarayonida yoki yozish jarayonida qisqacha qilib, yozma shaklda eslatma sifatida ishlatiladi. Misol uchun: I noted down the details – men tafsilotlarni qayd qildim. Notice esa xabardor qilish maqsadida ishlatiladi. Masalan: I noticed his hat was falling off - Uning shlyapasi tushganini xabar berdim

Shuningdek, umumiy boʻlgan yana shunday soʻzlar borki, ularni farqlashimiz lozim. Shulardan biri, work va job soʻzlaridir. Work soʻzi job soʻzidan koʻra umumiyroq hisoblanadi. Work umumiy maqsad va maqsadga erishish uchun qilinadigan ishlarni nazarda tutsa, job soʻzi maʼlum bir kasbga oid soʻz hisoblaniladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir nechta jihatdan farqqa ega boʻladi. Shulardan biri maʼno qirrasidagi farq boʻlishi mumkin. Quyida baʼzi sinonimlarning semantik jihatdan farqlanishni misollar yordamida koʻrib chiqamiz. Masalan, ingliz tilidagi miss va lose soʻzlarini farqlaganimizda quyidagi xulosaga kelish mumkin.

We went to the cinema last night. It was great movie. We missed the first ten minutes -- oʻtgan tunda biz kinoga bordik. U ajoyib edi. Biz uni avvalgi 10 daqiqasini boy berdik. Ushbu gapdagi miss soʻzi yoʻqotmoq maʼnosida aynan qoʻllanilmagan. Balki, boy bermoq va topib boʻlmaydigan vaziyatlar maʼnosi anglashilgan.

Ammo: **I lost my keys and suddenly I find them** – Men kalitlarimni yoʻqotib qoʻydim va tasodifan ularni topdim. Ushbu gapda lose soʻzi esa, boy bermoq maʼnosida emas, aksincha yoʻqotmoq, yaʼni biror bir predmetni yoʻqotish maʼnosini kasb etgan. Bundan tashqari, yana shunday soʻzlar borki, maʼno farqlash jarayonida turli qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Arrive va reach soʻzlarini farqlab koʻrganimizda, ulardagi maʼnoviy farq matn ichida namoyon boʻladi. Finally, I reached my prize - Vanihoyat, men oʻz yutugʻimga erishdim. Yaʼni, reach leksemasi biron bir narsaga oʻz mehnati evaziga erishish, qoʻlga kiritish sxemasini ifodalab kelgan. I arrived home - men uyga yetib keldim. Arrive esa joy yoki makonga nisbatan yetib kelish holatlari uchun ishlatiladi. Reach va arrive soʻzlari xam oʻzaro sinonim boʻlsa-da, ular faqatgina matn ichida boshqa maʼno ifodalashi mumkin.

Pick va select soʻzlarini tahlil qilganimizda, ular orasidagi farq juda yaqin ekanligini koʻramiz. Yaʼni select soʻzi tanlash jarayonida imkoniyat borligini anglatadi. Masalan: Select Christmas present for a child - bolalar uchun rojdestvo sovgʻasini tanlash yaʼni bu yerda tanlash uchun imkoniyat bor, xech qanday cheklov yoʻqligini koʻrishimiz mumkin. Pick esa, kelajakda ishlatilishi mumkin boʻlgan predmetlarni tanlash, yaʼni ishora qilish uchun ishlatiladi. Misol uchun: pick new words - yangi soʻzlarni tanlash **Answer va reply** soʻzlarini farqlash jarayonida, answer koʻproq ogʻzaki nutq uslubi uchun xosligi, reply soʻzini esa yozma nutq uslubi uchun xosligini bilishimiz va buni soʻzlashish jarayonida kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, reply umumiy holatlar uchun, answer qisqa javob beriladigan vaziyatlar uchun mosdir. Bu oʻzaro sinonimlarni predloglar yordamida farqlashimiz xam mumkin. Misol uchun, answer a question, lekin answer to question shaklida gap tuza olmaymiz. Balki, reply to a question. Reply soʻzi oʻziga to predlogini qabul qilishi bilan xam farqlanishi mumkin ekan. Sinonim soʻzlarni farqlar ekanmiz, ularning turli xil ekanligini, xar xil emotsional xarakterga ega ekanligini, matn ichida turlicha, semantik jihatdan yagona maʼnoga ekanligini koʻrishimiz mumkin. Maʼnodosh

so'zlarni yagona ma'noga ega ekanligi emas, ularning xar biri o'zgacha ma'no kasb etayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ko'p foydalaniladigan so'zlardan biri survive va outlive - yashamoq, uzoqroq yashamoq. Misol uchun:

No mother wants to outlive her children - xech qaysi ona farzandlari bilan yashashni xohlamaydi. Yoki,

She survived her husband by ten years - u turmush o'rtog'i bilan 10 yil yashagan. Ushbu so'zlarni o'zaro taqqoslash jarayonida ulardagi qo'shimcha ma'noga xam e'tibor qaratish lozim. Har ikki so'z xam bir xil ma'noga ega, ammo survive so'zi omon qolmoq ma'nosida xam ishlatiladi: **She definitely didn't know how to survive in the forest** - u aniq bilmaydi qanday qilib o'rmonda tirik qolgan.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi ma'nodosh so'zlar rang-barang bo'lib, ularni nutq jarayonidami yoki matn bilan ishlayotgan vaqtda xam keng qo'llay olish imkoniyati mavjud. Bu esa nutqimizni mahsuldor bo'lishi uchun, turli xil zerikishlardan qochish uchun xizmat qilib, kelajakda xar taraflama yordam beradi. Chunki, sinonimlar ya'ni shakldosh so'zlar nutq jarayonida ham, yozma shaklda ham qo'llanilganda tinglovchiga qiziqish uyg'otadi. O'rganishimiz mobaynida sinonimlardan oqilona va gap tarkibida qanday shakldosh so'z qo'llashimizga e'tibor berishimizga, ularni noto'g'ri ishlatilmasligiga ya'ni gaplarimiz g'aliz chiqmasligini oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Давлетбаева Д.Н. Lectures on English Lexicology. Казан 2010. 28-bet
2. Арнольд И.В. Лексикология современного анлийского языка. Москва. Высшая школа. 1986. 78-79- bet
3. Ginzburg R.S, Khidekel S.S, Knyazaeva G.Y, Sankin A.A. A course in Modern English Lexicology. Moscow 1966
4. Иванова Н.К. English Lexicology .Иваново 2009
5. Фамина Н.В Лексикология Английского языка. Москва МАДИ 2018.
6. Осиянова О.М, Романюк М.Ю. English Lexicology Оренбург ИПК ГОУ ОГУ 2010.
7. Grinberg L.E, Kuznets M. D, Kumacheva A. V, Meltser G. M. Exercises in Modern English Lexicology. Moscow 1960
8. Leonhard Lipka. An Outline of English Lexicology. Max Niemeyer Verlag Tubingen 1992
9. Nino Tevdoradze. English Lexicology. Antrushina 1999